



## MAGISTRANTLARNI ILMIY-TADQIQOT KOMPENTNLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING SAMARALI OMILLARI

*Xusanova Ma'luda Nurdinovna*

*Namangan davlat universiteti doktoranti,  
[maludaxusanova82@gmail.com](mailto:maludaxusanova82@gmail.com) Tel: 94-159-83-64*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'qitish metodologiyasi va tashkiliy jihatlari, ilmiy uslub va yozish malakalari, muhit ve resurslari bilan magistrlik faoliyatini tubdan o'zgarib borishi bo'yicha ilmiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qitish metodologiyasi, loyihaviy ta'lim, intraktiv metod, mentoring, tyutoring, onlayn platformalar, ilmiy uslublar, problema tsrenkli yondashuv, ma'llimotlarni tahlil qilish, muhit, resurslar, olimlar jamoasi, ilmiy hamkorlik, ilmiy natijalar, etika.

## ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ МАГИСТРОВ

**Аннотация:** В статье разрабатываются научные выводы и рекомендации по фундаментальным изменениям в программе магистратуры, включая методологию преподавания и организационные аспекты, научный стиль и навыки письма, среду и ресурсы.

**Ключевые слова:** методика преподавания, проектное обучение, интерактивный метод, наставничество, репетиторство, онлайн-платформы, научные методы, проблемный подход, анализ данных, окружающая среда, ресурсы, группа ученых, научное сотрудничество, научные результаты, этика.

## EFFECTIVE FACTORS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING THE SCIENTIFIC AND RESEARCH COMPETENCE OF MASTERS

**Abstract:** This article develops scientific conclusions and recommendations on the fundamental changes in the master's degree program, including teaching methodology and organizational aspects, scientific style and writing skills, environment and resources.

**Keywords:** Teaching methodology, project-based learning, interactive method, mentoring, tutoring, online platforms, scientific methods, problem-based approach, data analysis, environment, resources, team of scientists, scientific collaboration, scientific results, ethics.



## KIRISH

Respublikamizda so'ngi yillarda ta'lif tizimini isloh qilish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, bo'lajak kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash, ta'lif-tarbiya jarayoni sifatini yangi bosqichga olib chiqish, jumladan, kimyo magistrlarining o'qitish jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lif samaradorligini ta'minlashning me'yoriy asoslari yaratilmoqda.

Oliy ta'lif muassasalarini magistrantlarining kasbiy-pedagogik rivojlanishi ularning mustaqil fikrashlari, ijodkorliklari, faolliklari, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unlashuvi hamda o'z o'zini tarbiyalashga bo'g'liq bo'lgan ehtiyojlarining shakllanishi, ijtimoiy shaxsiy qiziqishlarining kasbiy-pedagogik yo'nalishga ega bo'lishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak mutaxassis uchun magistraturada ta'lif olish jarayoni bu magistrantlarda ilmiy-pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatlama amalga oshirishda kasbiy jihatdan ahamiyatli sanalgan sifat, bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirish davri hamdir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizning pedagog olimlaridan B.X.Rahimov talaba-yoshlarning ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirishning ijtimoiy pedagogik asoslarini yoritib berdi. Olib borilgan tadqiqot natijasida [2]:

- talaba - yoshlarning ilmiy tadqiqot ishlariga oid faoliyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi nazariy-amaliy jihatdan asosladi;
- muammoning mohiyatini ochib beruvchi tayanch tushunchalarni sharhladi;
- talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish jarayonining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari, mazmuni, shakli, usul va metodlari belgilab berdi;
- talaba-yoshlarning ilmiy faoliyati samaradorligini ta'minlovchi pedagogik omillar aniqladi;
- talaba - yoshlarning ilmiy-ijodiy faoliyati darajasini aniqlovchi mezonlar ishlab chiqdi;
- talabalarning mustaqil ilmiy faoliyat yuritishida "ilm orqali bilim olish" tamoyilining ahamiyati belgilandi va ilmiy asosladi;



- oliy o'quv yurtlarida ilmiy tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish jamiyat rivojlanishining muhim omillaridan biri ekanligi asoslab berdi;
- talaba-yoshlarning ilmiy faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqdi.

Mamlakatimiz yosh olimalaridan M.R.Qodirova o'z tadqiqotlarida ta"lim jarayonlari samaradorligini baholash mezonlarini shakllantirishda: intellektual qobiliyatli, intellektual tashabbus, intellektual ijod va intellektual o'z-o'zini boshqarishni hisobga olgan. Tadqiqotda talabalarning ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish darajalari to'ldirildi va tadbiq qilindi:[3]

1) passiv talaba o'zining imkoniyatlariga ishonmaydi, shu bilan birga, berilgan ma'lum ijodiy topshiriqlarni bajara olmaydi va hohlamaydi;

2) sust, bo'sh talaba o'z kuchi va imkoniyatlarida ikkilanadi, ijodiy topshiriqlarni faqatgina o'qituvchi boshchiligidagi reproduktiv usul yordamida bajara oladi; 3) o'rtacha talabaga ijodiy topshiriqlarni bajarishda qo'shimcha omillar zarur va u o'ylaganini amalga oshirish uchun yangi elementlar kiritadi. Bunda talaba individual ijodiy faoliyatga intilmasdan, kichik guruhlarda afzal ko'rishi muhim;

4) kuchli talaba o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonadi, ba"zida ularga ortiqcha baho beradi.

Tadqiqot doirasida talabalarning ijodiy rivojlanishining keng tarqalgan ko'rinishlari tavsiflangan:

- passiv-tanishtiruv (ijodiy faoliyatga qiziqish va ichki ehtiyoj);
- ijodiy-reproduktiv (talabalarning ijodiy faoliyatga intilishi bilan mos kelishi va uning reproduktiv xarakteri);
- qisman ijodiy (talabaning faolligi tizimli istak va xohishlarni talab qiladi, uning ijodiy faoliyati izlanuvchi xarakterga ega);
- xususiy ijodiy (talabaning o'z faolligini boshqarishda uning bilishga oid faoliyati ijodga aylanadi).

Rossiyalik pedagog-olim A.A.Gubaydulin o'z tadqiqotlarida talabalarning tadqiqot olib borish kompetentligini loyihamiy ta"lim asosida shakllantirish texnologiyalarni ochib berdi[5].



## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Magistrantlarning ilmiy-tadqiqot kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda samarali omillarni bir necha guruhga ajratish mumkin:

### 1. O'qitish metodologiyasi va tashkiliy jihatlari:

\* Problema-tsentralki yondashuv: Magistrantlarni muayyan ilmiy muammolarni yechishga jalb etish, ularning faol ishtirokini ta'minlash. Muammolarni formulirovka qilish, gipotezalarni ishlab chiqish va tekshirish jarayonlariga aloxida e'tibor qaratish.

\* Loyihaviy ta'lif: Magistrantlarni mustaqil ilmiy loyihalarni amalga oshirishga o'rgatish, bunda ular tadqiqotning barcha bosqichlarida ishtirok etishadi (masalani aniqlash, adabiyotlarni tahlil qilish, metodologiyani tanlash, maqlumotlarni yig'ish va tahlil qilish, natijalarni talqin qilish va taqdim etish).

\* Interaktiv metodlar: Munozaralar, debatlar, miya hujumi, hamkorlikdagi o'qitish kabi metodlar orqali magistrantlarning ilmiy fikrlashini rivojlantirish va ularning bilimlarini chuqurlashtirish.

\* Mentoring va tyutoring: Tajribali professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning yordami orqali magistrantlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini individual ravishda boshqarish va ularga maslahat berish. Bu yerda muntazam fikriga almashish, yutuqlarni muxokama qilish va muammolarni hal etishga yordam berish muxim.

\* Onlayn platformalar va resurslar: Ilmiy ma'lumotlar ba'zalari, elektron kutubxonalar, ilmiy nashrlar va onlayn ta'lif resurslaridan samarali foydalanishni o'rgatish.

### 2. Ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va natijalarni taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantirish:

\* Ilmiy uslub va yozish malakalari: Ilmiy maqolalar, tezislar, aspirantlik dissertatsiyalarini yozish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, ularda ilmiy uslub va akademik etika qoidalariga rioya etishni ta'minlash.

\* Ma'lumotlarni tahlil qilish va talqin qilish: Statistik dasturlardan foydalanish, ma'lumotlarni tasviriy va raqamli tarzda tahlil qilish, natijalarni ilmiy jihatdan to'g'ri talqin qilish malakalarini rivojlantirish.



\* Ilmiy natijalarni taqdim etish: Ilmiy konferentsiyalar, seminarlar, vebinalarda ishtirok etish, ilmiy ishlarni omma oldida taqdim etish malakalarini rivojlantirish. Taqdimotlarni tayyorlash va o'tkazish bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish.

\* Ilmiy axloq va etika: Ilmiy manbalardan to'g'ri foydalanish, plagiatdan saqlanish, ilmiy ishlarning sifati va e'tiborliligiga javobgarlik kabi masalalarga alohida e'tibor qaratish.

### 3. Muhit va resurslar:

\* Zamonaviy laboratoriylar va ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi: Magistrantlar uchun zarur bo'lgan jihozlar va resurslar bilan ta'minlash.

\* Kitobxona va elektron resurslarga kirish: Zamonaviy ilmiy adabiyotlar, ma'lumot ba'zalari va elektron kutubxonalariga erkin kirishni ta'minlash.


\* Ilmiy hamkorlik va tajriba almashish: O'zaro xamkorlikni rivojlantirish, ilmiy konferentsiyalar, seminarlar va tadqiqot loyixalarida ishtirok etish orqali magistrantlarning ilmiy salohiyatini oshirish.

\* Ilmiy jamoa: Magistrantlarni ilmiy jamoaga integratsiya qilish, ularga tajribali olimlar bilan muloqot qilish imkoniyatini berish.

Yuqorida sanab o'tilgan omillarning har birini kompleks tarzda amalga oshirish orqali magistrantlarning ilmiy-tadqiqot kompetentligini samarali rivojlantirish mumkin. Bu esa ularning kelajakdagi ilmiy va kasbiy faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratadi.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kasbiy kompetentlikni tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ilmiy tadqiqot kompetentligini shakllantirishning asosiy shart - sharoitlaridan biri o'qitish metodologiyasi va tashkiliy shakllar, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va natijalarni bayon qilish, muhit va resusrslar ilmiy faoliyat olib borish uchun yaxlit jarayon sifatida xizmat qiladi, Shuningdek, tadqiqot ishtirokchilari bilan tadqiqot ishlarini tashkil qilishda, nafaqat tadqiqot farazi va nazariy materiallarni bilish, balki o'zaro hamkorlik jarayonida do'stona yondashuvni o'z ichiga oladi.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.X.Xodjaev 'Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti'. Toshkent - 2017, 'Sano-standart' nashriyoti.
2. B.X.Rahimov. Talaba-yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga yo„naltirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari: p.f.d. diss. avtoref. ... - Toshkent, 2009.
3. G.N.Ibragimova. Interfaol o„qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: p.f.b.f.d. (PhD) diss. avtoref. ... - Toshkent, 2017.
4. Alemasov V., Mamadaliev Sp. Ilmiy tadqiqot: metodologiya, metodika, ijodiyot o'quv qo'llanma. – T.: IIV Akademiyasi, 2015.
5. А.А.Губайдулин Формирование исследовательской компетентности студентов в условиях проектного обучения: диссертация (к.п.н.), - Казань, 2011 г.
6. Alimjonova J.I. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi / Ma'ruza matnlari. – T., 2010.
7. Alimova X.A. va boshq. Magistrlar ilmiy ish ishlarini tashkil qilish, bajarish va himoyaga tayyorlash bo'yicha uslubiy qo'llanma. – T.: TTESI, 2001.